Al-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	828
<b>Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi</b>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish .....	832
<b>Rahmonova Zamiraxon Yakubovna</b>	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
<b>Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi</b>	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
<b>Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna</b>	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
<b>Ergasheva Mahbuba</b>	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность .....	846
<b>Уринбаев Исроилжон Кадиржонович</b>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress va uni keltirib chiqaruvchi omillar.....	851
<b>Boymirzayeva Nafisaxon Baxodir qizi</b>	
Talabalarda milliy tarbiya va axloqiy immunitet tushunchalarini rivojlantirishning milliy-tarixiy kontekstual jihatlari .....	855
<b>Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich, Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna</b>	
TRIZ texnologiyasi – uchinchi renessans poydevori .....	860
<b>Yusupova Gulshiraxon Zinatdinovna</b>	
Yoshlar mafkurasini shakllantirishda hozirgi zamon ijtimoiy tarmoq va raqamli platformalarning o'rni.....	865
<b>Xonimov Sharofiddin Bahodirovich</b>	
O'zbek tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslarining o'rni va xususiyatlari.....	870
<b>Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna</b>	
Xiva xonligining tashqi savdo aloqalari tarixidan .....	874
<b>Abduraimova Charos Nodir qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini boshqaruv madaniyatini shakllantirish omillari.....	878
<b>Abduraxmonova Xurshida G'ofurovna</b>	
Gandbol sport turini umumiy o'rta ta'lim maktablarida rivojlantirish.....	881
<b>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li, Abduraxmonov Saydillo Xakimovich</b>	
PIRLS xalqaro tadqiqotida matn, topshiriqlar va baholash mezonlari .....	884
<b>Amonova Aziza Saydulloyevna</b>	



Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ....	888
<i>Amonova Madina Furkatovna</i>	
Morfonologiya va uni umumiy ta'lim tizimida o'qitish .....	891
<i>Asatullayeva Dilnavoz Jondullayevna</i>	
Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi .....	894
<i>Azimov Ibragimjon Toshpo'latovich, Mirzaboev Timur Bisenboy o'g'li, Toshpo'latova Nigina Ibrohimjon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining shakllari va umumiy tuzilishi .....	898
<i>B. R. Xudoyberdiyev</i>	
Cognitive Justification of Humor in Modern Linguistics .....	901
<i>Bektoshev Mubashirkhon Odilbek Ugli</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish .....	905
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
Toshkent viloyatida rekreasion faoliyat rivojlanishining asosiy muammolari .....	910
<i>Djurayeva Lobar Vaxitovna</i>	
Didactic Features of Using E-Portfolios in Continuing Professional Development of Teachers .....	915
<i>Erkaboyeva Saodathon</i>	
O'quvchilar xulqida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning korreksiyalashga xizmat qiladigan manbalar .....	918
<i>F. A. Choriyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chet tilida lug'at boyligini oshirishning samarali usullari .....	921
<i>G'ulomjonova Mubdi'ma G'ayratjon qizi</i>	
Kitobxon badiiy adabiyotni qanday anglaydi .....	924
<i>Hamdamova Dilshoda Rustamjon qizi</i>	
Zamonaviy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	928
<i>Ibragimova Dilnoza Rashid qizi</i>	
The Pedagogical Role of the Community in Promoting Abilities of Students .....	931
<i>Isabayeva Dilfuza Komiljonovna</i>	
Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni .....	934
<i>Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna</i>	
Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda ingliz tili darslarida interaktiv media vositalarining ta'siri .....	938
<i>Ismoilova Zarifa Abduqaxxorovna</i>	
O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi .....	942
<i>Jabborova Shahodat Ibrohim qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida deontologik qadriyatlar va professional etikani rivojlantirish .....	945
<i>Kalandarova Fazilat Toxirovna</i>	
Voleybolda maxsus chidamlilikni rivojlantirishning umumiy tushunchalari .....	948
<i>Karimova Gulhayo Botirjon qizi</i>	
The Portrait of the Image of Manfred in the Translation of J.G. Byron's Poem "Manfred" .....	953
<i>Kurbonov Parda Akhmedovich</i>	
Suv aralashmasi temperaturasini aniqlash .....	958
<i>Mamatova Go'zaloy Jo'ramirzayevna, Mashrabboyeva Mubina Bobomurod qizi, Abdurahmonova Gulasal Avazbek qizi</i>	
Yosh bokschilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish yo'llari .....	961
<i>Mamatqulov Xusanboy Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari .....	965
<i>Mamura Tadjibayeva</i>	
Adabiy ta'limda scamper metodining qo'llanilishi .....	969
<i>Marjona Toshpulatova</i>	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari .....	974
<i>Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna</i>	
Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishning dolzarb muammolari va mavjud imkoniyatlari ..	977
<i>Mo'minova Qunduz Xolmamat qizi</i>	
"Jasper Jones" as New Life Given to The Novel "To Kill a Mockingbird" .....	982
<i>Nargiza Akhrorova</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari ..... 985 <b>Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon</b>
	Matematika darslarida kombinatorika elementlari va mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish metodikasi . 990 <b>Panjiyeva Shahlo Zulfixor qizi</b>
	Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari lisoniy-muloqot kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik talablar..... 993 <b>Raximova Charosxon Baxromjon qizi</b>
	Kurash texnikasi va taktikasini bolalarga o'rgatish yo'llari..... 996 <b>Raxmonov Dilmurod Nusratovich</b>
	Pedagogical Technologies in Modern Education: Trends and Applications..... 999 <b>Salimova Bakhora Khurbanovna</b>
	Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari..... 1003 <b>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</b>
	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlari mavzusini o'rgatishda qiziqarli o'yinlardan foydalanish..... 1006 <b>Shomurotova Sevinchoy San'at qizi</b>
	Kredit-modul tizimida texnologik fanlar o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli avtomatlashtirilgan o'quv modullari yaratish imkoniyatlari..... 1009 <b>Turdikulova Sevara Abdumo'minovna</b>
	Tyutorlik faoliyatining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati va murabbiylik an'analarning uzviyligi ..... 1012 <b>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</b>
	O'zbekistonda til ta'limida innovatsiyalar: sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar yondashuvi ..... 1016 <b>Umarova Iroda Shavkatjon qizi</b>
	Pedagogical Situation of Developing Students' Critical Thinking ..... 1020 <b>Usmonova Oydin Sherali kizi</b>
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirishning didaktik omillari ..... 1024 <b>Xolmo'minova Bahora Abduljalolovna</b>
	Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishga qo'yiladigan didaktik tamoyillar . 1027 <b>Xurshidjon Raximov Xursandjon o'g'li</b>
	O'zbekistonda steam ta'lim tizimini tatbiq etishning nazariy aspektlari ..... 1031 <b>Yaxshiboyeva Sitora Toshpulat qizi</b>
	Oliy ta'limda talabalar ijodiy salohiyatini shakllantirishda pedagogik innovatsiyalarning o'rni va imkoniyatlari ..... 1034 <b>Yuldashev Abdurauf Ro'zmatjonovich</b>
	Talabalarda nutqiy faoliyatni rivojlantirishga doir olib borilayotgan ishlarning joriy holati ..... 1037 <b>Yusufova Gulhayo Nosirxon qizi</b>
	Ingliz tili fanini o'qitishda (PBL) loyiha va muammoga asoslangan metodika: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot ..... 1040 <b>Zarina Tasheva Djumayevna</b>
	Актуальные проблемы изучения русского языка ..... 1043 <b>Абдуллаева Нигора Курбановна</b>
	Применение цифровых средств обучения в курсе "Окружающий мир" для изучения народной экологии в начальной школе ..... 1046 <b>Бобаева Зиёдахон Махамаджон кизи</b>
	Tasviriy san'at darslarini o'qitishga innovatsion yondashuv..... 1049 <b>N. P. Kaipov</b>
	Важность разработки стратегических программ развития страны..... 1052 <b>Каримова Нуржахон Олим кизи</b>
	Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi diagnostikasining kvalimetrik texnologiyalari ..... 1056 <b>Mirsoliyeva Muhabbatxon To'xtasinovna</b>
	Анализ элективных курсов по информатике в зарубежных странах и их аналогов в системе образования Узбекистана ..... 1060 <b>Урынбаева Азада Бахадыровна</b>
	Multimedia texnologiyalarining ta'lim tizimiga integratsiyasi..... 1064 <b>Raximova Dilfuza Abduraxmonovna</b>



# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

UDK: 372.3:37

Botirova Lobar Kamolovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
 maktabgacha ta'lim kafedrasida magistr

ORCID: 0009-006-1497-5329

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ochib berilgan. Bolalar tafakkuri, tasavvuri va estetik didining shakllanish jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalarning tutgan o'ri, ayniqsa STEAM yondashuvi, interaktiv o'yinlar, muammoli vaziyatlar va loyihaviy faoliyatning ta'siri ilmiy-pedagogik asosda tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada ijodiy muhitni yaratish, tarbiyachining kasbiy mahorati va ota-onalar bilan hamkorlik qilish muhim omil sifatida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ijodkorlik, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiya, estetik tarbiya, bolalar psixologiyasi, STEAM, o'yin faoliyati.

**Abstract:** This article reveals the importance of innovative pedagogical approaches in the development of creative abilities of preschool children. The role of modern methods and technologies in the process of forming children's thinking, imagination, and aesthetic taste, especially the influence of the STEAM approach, interactive games, problem situations, and project activities, is analyzed on a scientific and pedagogical basis. The article also highlights the importance of creating a creative environment, the professionalism of educators, and cooperation with parents as essential factors.

**Key words:** preschool education, creativity, innovative approach, pedagogical technology, aesthetic education, child psychology, STEAM, game activity.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается значение инновационных педагогических подходов в развитии творческих способностей детей дошкольного возраста. На научно-педагогической основе анализируется роль современных методов и технологий в процессе формирования мышления, воображения и эстетического вкуса детей, особенно влияние STEAM-подхода, интерактивных игр, проблемных ситуаций и проектной деятельности. В статье также подчеркивается важность создания творческой среды, профессионализма воспитателя и сотрудничества с родителями как важнейших факторов.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, творчество, инновационный подход, педагогическая технология, эстетическое воспитание, детская психология, STEAM, игровая деятельность.

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson salohiyati, ayniqsa ijodiy tafakkurga ega shaxslar yetishtirish ta'lim tizimining muhim vazifasiga aylanmoqda. Bu jarayon maktabgacha yoshdan boshlanadi, chunki aynan shu davrda bola tafakkuri shakllanadi, tasavvuri kengayadi va individual qobiliyatlari yuzaga chiqadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar joriy etilishi dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari yuksalib borayotgan davrda jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri – bu har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy va intellektual jihatdan yetuk qilib voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, madaniy-ma'naviy darajasi, ilm-fan taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimining raqobatbardoshligi va sifati bilan belgilanadi <sup>[1]</sup>. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish, unda innovatsion g'oyalarni joriy etish, ayniqsa maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab, dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatdagi o'rni va kelajak avlod tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab: "Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi", – degan edilar <sup>[2]</sup>. Bu fikrlar maktabgacha ta'lim bosqichining nafaqat ijtimoiy, balki intellektual va ijodiy jihatdan ham muhim poydevor ekani, yosh avlodning tafakkurini shakllantirishdagi roli naqadar dolzarb ekanini anglatadi.

Zamonaviy ta'limda asosiy maqsad – bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning imkoniyatlarini ochish, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdir. Xususan, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan metodlar va texnologiyalar orqali bola "men"ni anglay boshlaydi, o'zini mustaqil fikr egasi sifatida his etadi <sup>[3]</sup>. Innovatsion pedagogik texnologiyalar esa bu jarayonda pedagogning shaxsiy mahoratidan mustaqil holda ham yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ular bolaning qiziqishini uyg'otadi, mustaqil fikrlashga yo'naltiradi va ijodiy faoliyatni faollashtiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar davomida interfaol metodlar va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish bolalarning faolligini oshirish, jamoaviy fikrlash va ijodiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'limiy muhitning ochiqligi, erkin fikrlashga asoslangan vaziyatlarning yaratilishi bolaga o'zini jamiyatda subyekt sifatida his qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar orqali bola faol ishtirokchiga aylanadi, endi u faqat tinglovchi emas, balki bilim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lib shakllanadi.

Ta'lim innovatsiyasining mohiyati shundaki, u pedagogik texnologiyalar orqali yangilanishni, sifat jihatdan yuqoriroq ta'limiy natijalarga erishishni nazarda tutadi. Texnologik yondashuvlar dastlab metodik vosita sifatida qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda ular pedagogik faoliyatning ajralmas tarkibiy qismiga, ya'ni innovatsion jarayonga aylanib bormoqda. Maktabgacha ta'limda bu innovatsion texnologiyalar bolaning tabiiy qiziqishini uyg'otadigan, uning mustaqil izlanishiga turtki beradigan o'yinli, tasviriy, loyihaviy faoliyatlar orqali namoyon bo'ladi.

An'anaviy ta'lim tizimida bolalar ko'pincha passiv rol – tinglovchi sifatida qatnashgan bo'lsa, bugungi kunda bola o'quv jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirilmoqda. Ushbu yondashuv ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning poydevoridir. Endilikda bolaning bilishga bo'lgan ehtiyoji, yangi g'oya yaratishga bo'lgan ichki motivatsiyasi markaziy o'ringa chiqmoqda. Har qanday innovatsiya ehtiyoj natijasida yuzaga keladi – maktabgacha ta'limda esa bu ehtiyoj bolaning individual rivojlanishiga, tafakkur kengayishiga, ijtimoiy adaptatsiyasiga va albatta, ijodiy salohiyatiga xizmat qiladi.

Shu bois, tarbiyachining innovatsion faoliyati uning kasbiy va pedagogik mahoratining ajralmas belgisi sifatida qaraladi. Innovatsion texnologiyalarning har bir turi faqatgina bilim berish emas, balki bolalarda mustaqil fikrlash, estetik idrok, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Zero, zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi o'z oldiga faqat bilimli emas, balki hayotda duch keladigan murakkab vaziyatlarni hal eta oladigan, ma'naviy yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalashdek ulkan maqsadni qo'ygan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish" mavzusi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar, metodik qo'llanmalar va amaliy tavsiyalar izchil rivojlanmoqda. Quyidagi adabiyotlar ushbu yo'nalishda olib borilgan eng muhim tadqiqotlarni yoritadi.

Jahon ilmiy tajribasida ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasida amerikalik olimlar J.P. Guilford va E.P. Torrance'ning tadqiqotlari alohida o'rin egallaydi. Guilfordning divergent fikrlash haqidagi nazariyasida bolalarda yangilikka intilish, noodatiy yechimlar topishga bo'lgan qobiliyatning tabiiy asoslari tushuntirib beriladi. Torrance esa o'zining "Torrance Test of Creative Thinking" metodikasi orqali ijodiy fikrlashni baholash va rag'batlantirish yo'llarini ishlab chiqqan <sup>[4]</sup>.

L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolalar ijodiy qobiliyatining shakllanishi ijtimoiy muhit va kattalar bilan muloqot orqali ro'y berishi asoslab berilgan. Uning fikricha, bolaning rivojlanishi eng avvalo yaqin rivojlanish zonasi doirasida – kattalar yordami orqali mustaqil fikrga o'tishda yuzaga chiqadi. Bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda o'yin, tasviriy san'at, nutq faoliyati va muammoli vaziyatlarning o'rnini muhim deb baholaydi <sup>[5]</sup>.

Mahalliy olimlar orasida To'xtasin Jalolov, S.S. Rahmonqulova, Z.M. Yuldasheva va M.A. Karimovalarning maktabgacha ta'lim, innovatsion metodlar va ijodkorlikni rivojlantirishga doir tadqiqotlari e'tiborga molikdir. Xususan, Z.M. Yuldashevaning "Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar" nomli risolasida interfaol metodlar, o'yinli faoliyat, didaktik materiallar asosida ta'limiy jarayonni jonlantirish yo'llari ochib berilgan. U innovatsion texnologiyalarni faqat yangi metod sifatida emas, balki bolaning shaxsiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tizim sifatida baholaydi <sup>[6]</sup>.

M.A. Karimova esa o'z tadqiqotlarida STEAM yondashuvini maktabgacha ta'limga moslashtirish orqali bolalarning analitik va badiiy tafakkurini uyg'un holda shakllantirish bo'yicha samarali metodikalarni taklif qiladi. Bu yondashuv bolalarda ilmiy qiziqish, mantiqiy fikrlash, konstruktiv malakalar va badiiy idrokning uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi <sup>[7]</sup>.



Shuningdek, UNESCO va UNICEF tomonidan chop etilgan xalqaro hisobotlarda ham bolalar ijodiy salohiyatini erta yoshdan rivojlantirish barqaror rivojlanish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida baholanmoqda. Ular maktabgacha yoshda ijodiy faoliyatning (san'at, musiqa, drama, loyiha faoliyati) bola rivojiga keng ko'lamli ta'sirini ilmiy asoslangan holda isbotlab berishgan. Mavzu yuzasidan mavjud adabiyotlar bir tomondan ijodiy tafakkur va uning psixologik mexanizmlarini ochib bersa, ikkinchi tomondan pedagogik yondashuvlar orqali ularni rivojlantirishning innovatsion yo'llarini ko'rsatadi. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliyotda ham sinovdan o'tgan samarali vositalardir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mavzusining ilmiy-tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika, bolalar psixologiyasi, ijodiy tafakkur nazariyasi va innovatsion texnologiyalarni o'zaro uyg'unlashtirishga asoslanadi. Ushbu metodologik yondashuv orqali bolalarda ijodkorlik faoliyatining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari chuqur o'rganiladi. Tadqiqot quyidagi nazariy-metodologik g'oyalarga tayanadi:

- L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi – bola rivojining ijtimoiy muhit, muloqot va madaniy vositalar orqali shakllanishini asoslab beradi.
- J.P. Guilford va E.P. Torrance'ning ijodiy tafakkur haqidagi nazariyalari – divergent fikrlash, noodatiy yechimlar topish, muammoli vaziyatda yo'l topish qobiliyatining rivojlanishiga asoslanadi.
- J. Dewey va K. Rogersning konstruktivistik yondashuvi – bolani o'quv jarayonining faol subyeksi sifatida shakllantirish, tajriba orqali o'rganish zarurligini ko'rsatadi.
- Innovatsion pedagogik texnologiyalar (STEAM, muammoli o'qitish, interfaol metodlar) bo'yicha zamonaviy yondashuvlar – ta'lim samaradorligini oshirishda texnologik va didaktik innovatsiyalarning o'rnini belgilaydi.

Shuningdek, maqolada quyidagi asosiy ilmiy usullar qo'llanildi:

- Tahlil va sintez** – maktabgacha ta'lim tizimida mavjud ijodiy faoliyat turlari, innovatsion texnologiyalar mazmuni o'rganildi va ularning afzalliklari tahlil qilindi.
- Tajriba-sinov ishi** – bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni joriy etish orqali amaliy kuzatuvlar o'tkazildi.
- Sotsiologik so'rov** – tarbiyachilar, ota-onalar va metodistlar orasida so'rovnoma orqali innovatsion yondashuvlarning qamrovi va samarasi baholash uchun ma'lumotlar yig'ildi.
- Kuzatuv** – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning o'yin, rasm, dramatik ifoda kabi ijodiy faoliyatlari bevosita kuzatildi.
- Pedagogik diagnostika** – bolalarning ijodiy qobiliyatini aniqlash va baholashda Torrance testlari, shuningdek maxsus metodik materiallardan foydalanildi.
- Eksperiment** – nazorat va tajriba guruhlariga asoslangan innovatsion metodlarni qo'llash orqali natijalar qiyoslandi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik asoslarni boyitadi, innovatsion texnologiyalarni tizimli qo'llashga doir ilmiy asoslarni mustahkamlaydi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa, tadqiqot natijalari asosida tarbiyachilar uchun ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimi, uslubiy tavsiyalar, interfaol metodlar majmuasi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yosh davri bolaning psixofiziologik, ijtimoiy va intellektual rivojida poydevor bosqichi hisoblanadi. Shu bois aynan shu davrda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash, rag'batlantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish jarayoni – ijodiy tafakkur, tasavvur, mustaqil fikrlash, muammoni yechish va badiiy-estetik didning shakllanishini o'z ichiga oladi. Bu esa faqatgina an'anaviy metodlar bilan emas, balki innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy ta'limiy yondashuvlar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar, ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimini yangicha mazmun bilan boyitishni talab qilmoqda. Endilikda tarbiyachilardan pedagogik jarayonga ijodiy yondashish,

bolalar shaxsini o'rganishning yangi usullarini joriy etish, innovatsion ta'lim loyihalarini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish kutilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etar ekan, ularning zimmasiga faqatgina bilim berish emas, balki bolalarda tafakkur yondashuvini, analitik va ijodiy salohiyatni yuksaltirish vazifasi ham yuklatilgan.

Mashg'ulot jarayonlarini mazmunan va shaklan takomillashtirish, ularni jonlantirish, bolalarga tabiiy va sun'iy vaziyatlar asosida bilim berish – hozirgi ta'lim texnologiyalarining asosiy tamoyiliga aylangan. Bu borada muammoli vaziyatlar, STEAM yondashuvi, o'yin texnologiyalari, loyiha asosidagi ta'lim va axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni beqiyosdir. Jumladan, bunday innovatsion yondashuvlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda faol omil bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va ilg'or metodlarning joriy etilishi nafaqat bolaning shaxs sifatida kamol topishiga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar bolalar tafakkurining erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyati, estetik va madaniy ongining rivojlanishi uchun poydevor yaratadi.

Ma'lumki, ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Ta'limiy faoliyatlarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni muntazam qo'llar ekanmiz, bolaning shaxsiy imkoniyatlari, "men"ligi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar va texnologiyalarga diqqat qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Innovatsion pedagogik texnologiya – bola shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasi sifatida pedagog mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlaydi<sup>[8]</sup>.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kreativligini, ijodiy qobiliyatini rivojlantiradigan bir qancha texnologiya va metodlar mavjud. STEAM texnologiyasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng tarqalgan, ommalashib borayotgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishda eng qulay dasturlardan biridir. STEAM texnologiyasi asosida ta'limiy faoliyatlarining tashkil etilishi bolaning ijodkorlik qobiliyatining takomillashuvida, kelajakda o'zining innovatsion tashabbuslari, g'oyalari, loyihalari, tadqiqotlarni mustaqil ravishda amalga oshira olishiga turtki bo'ladi.

STEAM texnologiyani ta'limiy faoliyatda qo'llashning bosh maqsadi faoliyat jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda tarbiyalanuvchilarni texnik ijodkorlikka jalb qilish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish va imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, intellektual qobiliyatini, ijodkorligini rivojlantirishdir. Bu texnologiya aniq maqsadga qaratilgan bo'lib, barcha tarbiyalanuvchilarning faolligi muhim sanaladi. STEAM dasturida qandaydir bir g'oya, tushuncha va fikrlar aqlning rivojlanishi uchun asos bo'la olmaydi. Bola barchasini o'zi jonli ravishda amaliyotda qo'llab, natijalarni ko'rib, o'zi guvoh bo'lishi, aniqroq qilib aytganda, bajarib, his etib ko'rishi, o'z ishidan zavqlanishi lozim. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, bu texnologiya bolaning kreativlikka yetaklovchi muhim yo'llardan biri sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kreativligini, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda TRIZ texnologiyasiga ham murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. TRIZ – ya'ni ixtirochilik muammosini hal qilish nazariyasi bo'lib, taniqli rus olimi, ixtirochi olim Genrix Saulovich Altshuller tomonidan asos solingan. Bunda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni faol ijodiy fikrlashga undovchi takrorlanmas usullar va ish shakllaridan foydalanishi lozim. TRIZning maqsadi – g'oyalarni izlab topish, tashabbus bildirish, harakatchanlik, izchillik, qidiruv faolligi, yangilikka intilish bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun noyob vosita, ijodkorlikni o'rgatish mumkinligini va o'rgatish kerakligini isbotlovchi vositadir. Bu texnologiya bolalarni "Hamma narsada ijodkorlik!" shiori ostida tarbiyalash va o'qitish imkonini beradigan faol texnologiyalardan biridir.

Bu kabi texnologiyalar, metodlar, noan'anaviy ish shakllari bolalarning faolligini oshirishda, mustaqil fikriga ega bo'lishida, kreativlik va ijodkorlik qobiliyatlarini yanada oshirishda, keyingi ijtimoiy muhitlarining muvaffaqiyatli kechishida yetakchi o'rin tutadi<sup>[9]</sup>.

Ijodiy qobiliyat – bu bolalarning yangi g'oya, tasvir yoki faoliyat mahsulini yaratishga bo'lgan intilishi, intellektual va emotsional faollikning uyg'unlashgan shaklidir. Psixologlar (J. Guilford, E. Torrance, L.S. Vygotskiy) fikriga ko'ra, ijodkorlik tafakkurning o'ziga xos shakli bo'lib, u divergent fikrlash, mustaqil mulohaza yuritish, tasavvur va motivatsiyaga bog'liq<sup>[10]</sup>.

Maktabgacha yosh davrida bola atrof-muhit bilan faol aloqada bo'ladi. U o'yin, tasviriy san'at, musiqa, dramalashgan faoliyat orqali o'z dunyoqarashini ifoda etadi. Ushbu jarayonda ijodiy qobiliyatlarining paydo bo'lishi, o'sishi va mustahkamlanishida maqsadli, tizimli va innovatsion yondashuv muhim o'rin tutadi.

Hozirgi maktabgacha ta'lim amaliyotida quyidagi innovatsion yondashuvlar keng qo'llanilmoqda:

- **STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics)** – bolalarning ilmiy va badiiy fikrlashini uyg'unlashtiradi. Masalan, oddiy tajribalar, konstruktorlardan foydalanish, chizmachilik va matematik topshiriqlar orqali bola bir vaqtning o'zida analitik va estetik idrokni rivojlantiradi.



- **Muammoli vaziyatlar asosidagi ta'lim** – tarbiyachi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun qiziqarli muammoli topshiriqlarni taklif etadi. Bu yondashuv tafakkur va ijodiy yondashuvning faollashuviga xizmat qiladi.
- **Loyihaviy faoliyat** – bolalar kichik guruhda biror mavzu asosida (masalan: “Bahor fasli”, “Men – rassomman”) ish olib boradi, yakunda esa badiiy ko'rgazma yoki spektakl taqdim etiladi. Bunday yondashuv o'z fikrini jamoada ifodalash, rejalashtirish va ijro etish ko'nikmasini rivojlantiradi.
- **Raqamli texnologiyalarni qo'llash** – interaktiv doskalar, mobil ilovalar, animatsion dasturlar orqali bola vizual va eshitish sezgilarini uyg'otuvchi innovatsion muhitda ta'lim oladi. Biroq bunda texnologiyalar ijodkorlikni cheklamasligi, balki unga xizmat qilishi kerak.

Ijodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri – bu ijodkorlik muhitini yaratishdir. Bunday muhitda bola erkin fikr bildiradi, xatolardan qo'rqmaydi va o'z g'oyalarini mustaqil namoyon etadi. Tarbiyachi bu jarayonda yo'lbo'shchi, motivator va ilhomlantiruvchi bo'lishi zarur. U bolalar tafakkurini rag'batlantirish, ularga ijobiy baho berish va har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatini kashf etishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalangan holda samarali pedagogik muhit yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yosh – bu ijodiy qobiliyatlarning ildiz otadigan, shakllanadigan poydevor davridir. Ushbu davrda qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar bolalarning estetik didi, mulohaza qilish qobiliyati, mustaqil fikri va ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, tarbiyachining mahorati va ota-onalar bilan hamkorlik ijodiy taraqqiyotning barqaror kafo-lati bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kun zamonaviy ta'limini pedagogik texnologiyalarsiz, innovatsiyalarsiz, yangicha loyihalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shiddatli o'sish, yuksalish, rivojlanish bilan hayotning barcha sohalarida, xususan pedagogikada, ya'ni o'qitish va ta'lim jarayonida dadil qadamlar tashlanmoqda, innovatsiyalar yaratilmoqda. Olib borilayotgan ta'limdagi islohotlar va innovatsiyalar kelajak avlodni mustahkam bilimli, irodali, o'zligiga ega, kuchli salohiyatli, tezkorlik bilan samarali bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2030-yilgacha maktabgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. PQ-4457-son qaror. (2019).
2. Mirziyoyev, Sh.M. (2019). O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi. Rasmiy chiqishlardan.
3. Yuldasheva, Z.M. (2021). Ijodiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar. Maqsad va Natija, №3.
4. Torrance, E.P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Ginn & Co.
5. Vygotsky, L.S. (1996). Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Yuldasheva, Z.M. (2021). Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: “Fan va taraqqiyot” nashriyoti.
7. Karimova, M. (2023). Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasi orqali bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti, №2.
8. Torrance, E.P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Ginn & Co.
9. Altshuller, G.S. (1984). Creativity as an Exact Science: The Theory of the Solution of Inventive Problems (TRIZ). Gordon and Breach Science Publishers.
10. Guilford, J.P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.